

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-5]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Mahmudjonov Javoxir Abduvoxidjon-o'g'li
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: javoxirmahmudjonov1007@gmail.com

HUNARMANDCHILIK YOSHLAR O'RTASIDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASH VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada hunarmandchilikning yoshlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Hunarmandchilik faoliyati yoshlar orasida hamkorlik, o'zaro muloqot va milliy qadriyatlarga hurmat kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlari va ularning yoshlar ijtimoiy faolligiga ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Xususan, "Hunarmand" uyushmasi tomonidan yosh hunarmandlarga yaratilayotgan imkoniyatlar va ularning natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida hunarmandchilikning yoshlar ijtimoiy integratsiyasidagi roli o'rganiladi va kelgusida ushbu sohani yanada rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Hunarmandchilik, yoshlar, ijtimoiy munosabatlar, milliy qadriyatlar, madaniy meros, ijtimoiy faollik, hamkorlik, davlat dasturlari, "Hunarmand" uyushmasi, xalqaro tajriba

Mahmudjonov Javakhir Abduvokhidjon-ugli
Kokand State Pedagogical Institute, Teacher of the Department of
Fundamentals of National Idea and Spirituality

CRAFTS AS A MEANS OF STRENGTHENING SOCIAL RELATIONSHIPS AMONG YOUTH

Annotation: This article analyzes the role of crafts in strengthening social relations among young people. Craftsmanship activities serve to develop social skills such as cooperation, communication, and respect for national values among young people. The article also examines state programs for the development of crafts in Uzbekistan and their impact on the social activity of young people. In particular, the opportunities created for young craftsmen by the "Hunarmand" association and their results are analyzed. Also, based on international experience, the role of crafts in the social integration of young people is studied and recommendations are made for further development of this area in the future.

Keywords: Crafts, youth, social relations, national values, cultural heritage, social activism, cooperation, state programs, "Hunarmand" association, international experience

Махмуджонов Жавахир Абдувохиджон-угли
Кокандский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры основ
национальной идеи и духовности

РЕМЕСЛА КАК СРЕДСТВО УКРЕПЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: В статье анализируется роль ремесел в укреплении социальных связей среди молодежи. Занятия рукоделием способствуют развитию у молодежи социальных навыков, таких как сотрудничество, общение и уважение к национальным ценностям. В статье также рассматриваются государственные программы по развитию ремесел в Узбекистане и их влияние на социальную активность молодежи. В частности, будут проанализированы возможности, созданные ассоциацией «Хунарманд» для молодых мастеров, и результаты их деятельности. Также на основе международного опыта будет изучена роль ремесел в социальной интеграции молодежи и даны рекомендации по дальнейшему развитию этого направления в будущем.

Ключевые слова: Ремесла, молодежь, общественные отношения, национальные ценности, культурное наследие, общественная активность, сотрудничество, государственные программы, ассоциация «Хунарманд», международный опыт

Kirish: Hunarmandchilik insoniyat tarixida nafaqat mustahkamlovchi muhim omil sifatida ham e'tirof etiladi. iqtisodiy faoliyat turi, balki ijtimoiy munosabatlarni An'anaviy hunarmandchilik yoshlar o'rtasida hamkorlik,

o'zaro muloqot va milliy qadriyatlarga hurmat kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda yoshlar mamlakat aholisining salmoqli qismini tashkil etadi; 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 14-30 yosh oralig'idagi yoshlar soni 9,6 million nafarga yetgan. Bu demografik holat yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni jamiyat hayotiga faol jalb etish masalasini dolzarb qiladi [1].

So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlar bilan ishlashning tizimli yondashuvi shakllantirilib, ularning zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitilishi, bandligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi borasida muhim natijalarga erishilmoqda. Biroq, 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, 380 ming nafar maktab bitiruvchisidan 200 ming nafari mehnat bozoriga kirib kelgan bo'lsa-da, ularning bandligini ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Hunarmandchilik yoshlar bandligini ta'minlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Masalan, 2022-yilda yoshlar tadbirkorligi uchun 4 trillion so'm kredit ajratilib, 150 mingta loyiha ishga tushirilgan va natijada 325 mingta ish o'rni yaratilgan[2]. Bu kabi tashabbuslar hunarmandchilik sohasida ham yoshlarning bandligini oshirish va ularning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Shu bois, ushbu maqolada hunarmandchilikning yoshlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashdagi o'rni, uning yoshlar bandligi va ijtimoiy faolligiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, hunarmandchilik orqali yoshlarning ijtimoiy integratsiyasini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili: Hunarmandchilikning yoshlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashdagi o'rni ko'plab ilmiy tadqiqotlarda tahlil qilingan. Masalan, Ahmedova Dilrabo tomonidan olib borilgan tadqiqotda yoshlarning ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy qiyofasi shakllanishining ilmiy-tarixiy asoslari o'rganilgan bo'lib, unda hunarmandchilikning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ta'kidlangan[3]. Shuningdek, Zaynobiddinov Jaloldin va Xolxo'jayeva Shaxnoza maktabgacha yosh davrida ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarining shakllanishi haqida tadqiqot olib borib, hunarmandchilik faoliyatining bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi rolini ko'rsatib o'tganlar[4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida ham hunarmandchilikni rivojlantirish orqali yoshlarning bandligini ta'minlash va ijtimoiy faolligini oshirish masalalari muhimligi ta'kidlangan. Bu kabi davlat dasturlari hunarmandchilikni yoshlar o'rtasida targ'ib qilish va rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir[5].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda mehnat resurslari soni 19,4 million kishini tashkil etadi, shundan iqtisodiy faol aholi soni 15,1 million kishini yoki mehnat resurslarining 77,6 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar

yoshlar bandligini ta'minlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish uchun hunarmandchilik kabi an'anaviy sohalarni rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiya: Tadqiqotda davomida bir qator metodlardan foydalaniladi. Jumladan, hunarmandchilikning yoshlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashdagi o'rni aniqlash maqsadida mavjud ilmiy adabiyotlar, davlat dasturlari va statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi., yoshlar orasida hunarmandchilik faoliyatining ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini o'rganish uchun maxsus so'rovnomalar o'tkaziladi.

O'zbekiston va boshqa mamlakatlardagi hunarmandchilikning yoshlar ijtimoiy faolligiga ta'siri solishtiriladi, olingan ma'lumotlar asosida hunarmandchilikning yoshlar bandligi va ijtimoiy munosabatlariga ta'siri statistik jihatdan tahlil qilinadi.

Ushbu metodlar orqali hunarmandchilikning yoshlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashdagi ahamiyati chuqur o'rganilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot natijalari: O'zbekiston Respublikasida hunarmandchilikning yoshlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashdagi ahamiyatini o'rganish natijasida bir qator ilmiy va statistik xulosalar chiqarildi.

Yoshlarning bandligini ta'minlash yuzasidan bir qator ishlar belgilandi. Statistik ma'lumotlarga yuzlanadigan bo'lsak, 2018-yilda hunarmandchilik sohasida 26 883 ta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan bo'lsa, amalda 40 338 ta ish o'rni tashkil etildi. 2019-yilda esa 44 700 ta yangi ish o'rni yaratish belgilangan edi. Bu ko'rsatkichlar hunarmandchilikning yoshlar bandligini oshirishdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Respublika bo'ylab 5 mingdan ziyod "Usta-shogird" maktablari faoliyat yuritish orqali ularda 23 mingdan ortiq yoshlarning bandligi ta'minlandi. Bu an'ana yoshlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Davlat dasturlari orqali qo'llab-quvvatlash natijasida 2023-yil 1-iyuldan boshlab hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilishda xalqaro pochta va kur'yerlik jo'natmalari xarajatlarining 50 foizi qoplab berilishi belgilandi. Bu kabi imtiyozlar yosh hunarmandlarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, hunarmandchilik faoliyati yoshlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, ularning bandligi va faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Muhokama: O'zbekiston Respublikasida hunarmandchilikning yoshlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashdagi roli ko'plab omillar bilan izohlanadi. Avvalo, hunarmandchilik yoshlarning bandligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib, 2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida 2 549 nafar hunarmand uyushma ro'yxatidan o'tgan va 5 128 nafari hunarmandchilikning 30 ta yo'nalishi bo'yicha faoliyat

ko'rsatmoqda. Bu esa yoshlar o'rtasida ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi[6].

Shuningdek, hunarmandchilik sohasida "usta-shogird" an'anasi yoshlarning kasbiy mahoratini oshirish va ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur an'ana orqali yoshlar nafaqat hunarmandchilik sirlarini o'rganadilar, balki ijtimoiy munosabatlar tizimida ham faol ishtirok etadilar.

Bundan tashqari, 2018-2022-yillar mobaynida hunarmandchilikni rivojlantirish dasturlari doirasida 1 700

dan ortiq loyihaga jami 54 milliard so'mdan ortiq bank krediti ajratilgan. Bu kabi moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari yosh hunarmandlarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi[6].

Xulosa va takliflar: Hunarmandchilik yoshlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu faoliyat nafaqat milliy merosni saqlab qolish, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarni rivojlantirishda ham muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov A. Yoshlarimiz – Yangi O'zbekistonning buguni va kelajagi! // Yangi O'zbekiston» gazetasi 2024-yil 26-iyul 149 (1210)-soni
2. Saidov A. "BMT minbarida O'zbekiston yoshlarining ovozi yangradi" // Xalq so'zi gazetasi. 2023-yil 1-may soni.
3. Ahmedova D. YOSHLAR IJTIMOY, MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASI SHAKLLANISHINING ILMIY-TARIXIY ASOSLARI. // ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. Выпуск журнала №-63 (4). 2025. – B. 513-526.
4. Zaynobiddinov J, Xolxo'jayeva Sh. MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA IJTIMOY HAMKORLIK KO'NIKMALARINI NAZARIY O'RGANILISHI // Uzbek Scholar Journal Volume-16, May, 2023. – B. 42-48.
5. <https://daryo.uz/2017/07/01/shavkat-mirziyoyevning-kamolot-yoshlar-ijtimoiy-harakatining-iv-qurultoyidagi-nutqi>
6. <https://uza.uz/posts/533195>